



IQLIM O‘ZGARISHI BO‘YICHA XALQARO SAMMITDA SAYYORAMIZDAGI GLOBAL MUAMMOLARGA YECHIM BO‘LADIGAN TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 1-dekabr kuni Dubay shahrida o‘tayotgan BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasining (COP28) asosiy yalpi sessiyasi ishida ishtirok etdi.



Tadbirda dunyoning 170 dan ziyod mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar rahbarlari qatnashmoqda.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida

miy qutlab, Amirliklarning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash borasidagi global tashabbuslarini hamda “yashil” taraqqiyotga qo‘shayotgan katta hissasini alohida qayd etdi.

didga aylanib ulgurdi. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari zamonamizning aynanchli ekologik inqirozlaridan biri — Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo va unga yondosh mintaqalarda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda.



roratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p, so‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib yo‘qoldi.

hosildorlikning keskin pasayishi va ko‘plab boshqa muammolar mintaqada istiqomat qilayotgan millionlab odamlarning turmushi sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz “yashil” iqtisodiyotga

So‘nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi. 2030-yilga borib, 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari barpo etiladi. “Yashil” vodorod ishlab chiqa-



Birlashgan Arab Amirliklari rahbariyati va xalqini milliy bayrami hamda tarixiy sammitni muvaffaqiyatli tashkil etgani bilan sami-

O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek, hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tah-

Mamlakatimiz yetakchisi yig‘ilganlarning e’tiborini ayrim faktlarga qaratdi. Masalan, Markaziy Osiyoda havo ha-



Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo‘ronlari, ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi,

o‘tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini ta’kidladi.

rish loyihasi bo‘yicha ilk amaliy qadamlar tashlandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IQLIM O‘ZGARISHI BO‘YICHA KONFERENSIYASIDAGI (COP28) NUTQI

Hurmatli delegatsiya rahbarlari!

Bugungi tarixiy sammitga taklif etilgan hamda anjumanning yuqori darajada tashkil qilingani uchun Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayon A'lo Hazratlariga bildirilgan samimiy minnatdorchilik so'zlariga qo'shilaman.

Biz Amirliklarning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi global tashabbuslari va "yashil" taraqqiyotga qo'shayotgan katta hissasini olqishlaymiz.

Fursatdan foydalanib, Birlashgan Arab Amirliklari xalqini Milliy bayrami bilan chin dildan qutlayman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilmoqda.

Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda.

Hurmatli anjuman qatnashchilari! “Yashil” iqtisodiyotga o'tish va

uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasidir.

So'nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko'paydi.

Biz 2030-yilga borib, 25 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini barpo etamiz. “Yashil” vodorod ishlab chiqarish bo'yicha ilk amaliy qadamlarni tashladik.

“Yashil makon” tashabbusi doirasida mamlakatimizda 1 milliard tup ko'chat ekilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o'rmonlar barpo etdik.

Biz iqlim o'zgarishiga qarshi faqat birmamlik va keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kurashishimiz mumkin.

Bu borada quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchidan, Parij shartnomasi doirasida iqlim o'zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmini tezroq kelishish tarafdorimiz.

Biz Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida Adaptatsiya strategiyasini ishlab chiqmoqdami.

Kecha “Yo'qotish va zararlar” jamg'armasini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan muhim qarorni yuksak baholaymiz.

Bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlari, albatta, inobatga olinishi shart. Bu muammoni “Katta yettilik va yigirmalik” formatlarida doimiy ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyasi asosida

Orolbo'yi hududini ekologik ofat zonasidan “innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasi”ga aylantirmoqchimiz.

Bu yerda iqlim texnologiyalari xalqaro ekspozitsiyasini yaratishda yaqin hamkorlikka taklif etaman.

To'rtinchidan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish lozim.

Toshkentdagi “Yashil universitet” negizidagi “Iqlim ilmiy forumi”da davlatlarimiz yetakchi olim va ekspertlarini ishtirok etishga chaqiramiz.

Yer degradatsiyasi, suvdan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari Forum kun tartibidan joy oladi, deb ishonaman.

Beshinchidan, BMT bilan 2024-yili O'zbekistonda “Iqlim migratsiyasi” konferensiyasini o'tkazish niyatidamiz.

Xalqaro mehnat tashkiloti bilan “Yashil

bandlik” dasturi'ni ishlab chiqish va Modellashtirish markazini tashkil etishni taklif qilaman.

COP Yoshlar konferensiyasini mamlakatimizda yuqori darajada tashkil etishga tayyormiz.

Hurmatli do'stlar! O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha umumbashariy g'oyalarga doimo sodiqdir.

Bu ezgu maqsadda kelgusi yili Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazish va Birlashgan Millatlar Tashkilotining alohida rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusimizni qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Ishonchim komil, bugungi sammitimiz sayyoramizning yanada barqaror, farovon va xavfsiz kelajagini ta'minlash yo'lida do'st xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.



IQLIM O‘ZGARISHI BO‘YICHA XALQARO SAMMITDA SAYYORAMIZDAGI GLOBAL MUAMMOLARGA YECHIM BO‘LADIGAN TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

Бoshлaниши 1-бeтдa

Bundan tashqari, “Yashil makon” tashabbusi doirasida O‘zbekistonda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida mustahkam himoya qalqonini yaratish maqsadida 2 million gektar maydonda o‘rmonlar barpo etilgani tufayli Orolbo‘yida havo ifloslanishi kamaymoqda.

Tadbir kun tartibidagi asosiy masalalarga o‘tar ekan, O‘zbekiston yetakchisi qator takliflarni ilgari surdi.

Jumladan, Prezidentimiz Parij shartnomasi doirasida Iqlim o‘zgarishiga moslashish sohasidagi Global hadli mexanizmi tezroq kelishishga chaqirdi.

Shu ma’noda, Markaziy Osiyo iqlim muloqoti platformasida ishlab chiqilayotgan Moslashuv strategiyasi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari “Yo‘qotish va zararlarni” jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorni yuksak baholadi.

Ushbu mexanizmlar Jahon banki va xalqaro moliya institutlari tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanishi, eng avvalo, iqlim o‘zgarishidan katta aziyat chekayotgan mamlakatlarga salmoqli yordam beradi.

Global miqyosda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish adolati, shaffof va inklyuziv bo‘lishi zarurligi, bunda rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini, albatta, inobatga olinishi juda muhimligi qayd etildi.

Bu dolzarb muammoni muntazam ravishda, shu jumladan, “Katta yetillik” va “Katta yigirmalik” formatlari kun tartiblarida ko‘rib chiqib borish taklif qilindi.

Orolbo‘yi hududini Innovatsiyalar, texnologiyalar va yangi imkoniyatlar mintaqasiga aylantirish uchun davlatimiz rahbari bu yerda ilg‘or bilim, tajriba va yechimlarni qo‘llash maqsadida Iqlim texnologiyalari xalqaro ekspo-xabini

yaratishda barchani yaqin hamkorlikka taklif etdi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz Toshkentdagi “Yashil universitet” negizida tashkil etilayotgan Iqlim ilmiy forumi doirasida yaqin ilmiy almashinuvni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazishga chaqirdi.

Yer degradatsiyasining oldini olish, suvdan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlarni ta’minlash va boshqa o‘tkir masalalar forumning kun tartibidan joy oladi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan 2024-yili O‘zbekistonda “Iqlim migratsiyasi” mavzusida konferensiyani o‘tkazish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda “Yashil bandlik” dasturini ishlab chiqish, Iqlim o‘zgarishining bandlikka ta’sirini modelashtrish markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Iqlim muammolarini samarali yechishga yoshlarni faol jalb qilish uchun mamlakatimiz BMT Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasining Yoshlar forumini tashkil etishga tayyor ekanini qayd etildi.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha umumbashariy g‘oyalarga doimo sodiqligini tasdiqlab, davlatimiz rahbari kelgusi yili Samarqand xalqaro iqlim forumini o‘tkazish va Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy yondashuvlari o‘z ifodasini topgan BMT Bosh Assambleyasining alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

So‘zining yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Dubaydagi sammit natijalari sayyoramizning yanada barqaror, farovon va xavfsiz kelajagini ta’minlash yo‘lida barcha mamlakatlar va xalqlarni yaqinlashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Butunjahon iqlim sammiti doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Malayziya Podshohi Sulton Abdulloh Riyoatuddin Al-Mustafo Billoh Shoh, Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyin Xurelsux, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Indoneziya Prezidenti Joko Widodo, BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav va Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuvda ushbu nufuzli moliyaviy institut bilan amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari joriy yil may oyida Samarqandda o‘tgan YTTB Boshqaruvchilar kengashi yig‘ilishining samarali natijalarini yuksak baholadi.

Bankning mamlakatimizdagi investitsiyalari 3,5 milliard yevrodan oshgani, loyihalar portfelining 60 foizi xususiy sektorga to‘g‘ri kelayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mamlakatimiz bilan sheriklik bo‘yicha ishlab chiqilayotgan Sheriklik strategiyasi, eng avvalo, kichik va o‘rta biznes, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish, bank sohasida xususiy lashtirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda hamkorlik sifati va ko‘lamini salmoqli darajada oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Kelgusi yilda Xorijiy investorlar kengashi navbatdagi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Malayziya Podshohi Sulton Abdulloh Riyoatuddin Al-Mustafo Billoh Shoh bilan uchrashuvda O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi munosabatlarni, eng avvalo, iqtisodiy sohada yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro savdo hajmi oshmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperasiya loyihalari hamda ziyorat turizmi sohasida dasturlar amalga oshirilmogda.

Sheriklik kun tartibini aniq amaliy mazmun bilan boyitish maqsadida kelgusi yilda Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi hamda qo‘shma biznes-forumini o‘tkazishga kelishib olindi.

Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyin Xurelsux bilan uchrashuvda O‘zbekiston bilan Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi an’anaviy do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

2022-yil sentyabr oyida Samarqandda o‘tgan uchrashuv kelishuvlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zaro savdodagi ijobiy sur’at mamnuniyat bilan qayd etildi. Chorvachilik, oziq-ovqat, charm, agrar, to‘qimachilik va boshqa tarmoqlarda hamkorlik uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Avtomobil va havo kommunikatsiyalari, turizm, hududlararo va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash kabi sohalarida shartnoma-huquqiy asoslarni takomillashtirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Kelgusi yilda qo‘shma Hukumatlararo qo‘mita va Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig‘ilishlarini o‘tkazishga kelishildi.

Ushbu uchrashuv yakunlari bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishning “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga ahdlashib olindi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan uchrashuvda keng ko‘lamli strategik sheriklikni yanada kengaytirish va qo‘shma investitsiya loyihalarini ilgari surish borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Ilgari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini, shu jumladan, O‘zbekiston — Turkiya Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig‘ilishini o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Indoneziya Prezidenti Joko Widodo bilan uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajalardagi o‘zaro muloqotlarning bugungi holati va ikki tomonlama savdodagi ijobiy sur’at mamnuniyat bilan qayd etildi.

Samarali hamkorlikni, shu jumladan, iqtisodiy sohada “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish orqali kengaytirish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashgan choralarni davom ettirishdan ikkala tomon ham manfaatdor ekanini ta’kidlandi.

BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav bilan uchrashuvda o‘tgan oyda Samarqand shahrida dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlari delegatsiyalari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan BMTning Cho‘llanish bo‘yicha konvensiyasini amalga oshirish qo‘mitasining 21-sessiyasi sermahsul bo‘lgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

2024-yilda Saudiya Arabistonida bo‘lajak konferensiyasi davomida Chang va qum bo‘ronlari bo‘yicha Samarqand deklaratsiyasini qabul qilish masalasini birgalikda ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Toshkent shahridagi Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishi universiteti negizida ilmiy hamkorlik va tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Kommunikatsion texnologiyalar, farmatsevtika, fan va ta’lim, sog‘liqni saqlash, an’anaviy tibbiyot va yoga sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda qo‘shma dasturlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari sammit doirasida Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron, Yaponiya Bosh vaziri Fumio Kishida, Chernogoriya Prezidenti Milo Jukanovich, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amirligi hokimi Muhammad bin Roshid Ol Maktum, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon, Dubay Amirligi valiahd shahzodasi Hamdan ibn Muhammad Ol Maktum, Futbol assotsiatsiyalari xalqaro federatsiyasi (FIFA) rahbari Janni Infantino hamda boshqa bir qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan suhbatlar o‘tkazdi.

O‘zbekiston Prezidentining Birlashgan Arab Amirliklariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA



MUNOSABAT

BOSH MAVZU – KELAJAK TASHVISHI

BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi (COP28) ishtirokchilarining joriy yil 30-noyabr – 12-dekabr kunlari Dubay shahrida bo‘lib o‘tayotgan 28-konferensiyasi doirasidagi Iqlim bo‘yicha jahon sammiti xalqaro hamjamiyat e’tiborini tortmoqda.

Ibrohimjon FOZILJONOV, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Asosiy muhokama va munozaralar atmosferaga zararli chiqindilar tashlanishini kamaytirish, qazib olinadigan an’anaviy yoqilg‘ilardan voz kechish, rivojlanayotgan mamlakatlarni muqobil energiyaga o‘tishi uchun adolatli ravishda mablag‘ bilan ta’minlash masalalari atrofida kechyapti.

Iqlim o‘zgarishi muammolari butun dunyoga ta’sir ko‘rsatmoqda, uning oqibatlari allaqachon katta zarar keltirib, Barqaror rivojlanish maqsadlariga tahdid solmoqda va insoniyat kelajagi uchun asosiy muammoga aylanmoqda. Aynan shuning uchun dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, asosiy xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillari jamlaydigan ushbu forum iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va oqibatlarini yumshatish, iqlim strategiyasini moliyalashtirish va “yashil” energiyaga o‘tishda xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning keskin industrial rivojlanishi, tabiat qonuniyatlariga bo‘ysunmay, uning resurslaridan oqilona foydalan-

maslik, atmosferaga behisob miqdordagi issiqxona gazlari chiqarilishi iqlim o‘zgarishiga olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, jahonning turli nuqtalarida yilning to‘rt faslida ham harorat keskin o‘zgarishiga, ba’zi yerlarda halokatcha yog‘ingarchiliklar, toshqin, bo‘ronu to‘fon kabi ofatlarga, boshqa joylarda qurg‘oqchilik, cho‘llanish, yer degradatsiyasi, o‘rmon yong‘inlari va boshqa ekologik muammolarga sabab bo‘lmoqda. Jahon meteorologiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kungacha global yillik o‘rtacha havo harorati 1880-yildagidan 1 daraja ortgan. O‘zbekistonda xuddi shu davr uchun o‘rtacha yillik havo harorati 1,6 daraja ko‘tarilgan. Ya’ni isish jadalligi global miqyosda kuzatilayotgan o‘rtacha sur’atdan yuqori. Sababi O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi ta’siriga ko‘proq moyil bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Ekspertlar fikricha, iqlim o‘zgarishi ekologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Xorazm kabi hududlarda ekologik vaziyat keskinlashuviga, yil mobaynida jazirama davr



“ BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga kelib, iqlim o‘zgarishiga moslashish sa’y-harakatlarini moliyalashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli yordam uchun har yili 200 milliard dollardan ortiq mablag‘ talab qilinadi.

davomiyligi ortishi va kuchayishi natijasida aholi o‘rtasida kasalliklar ko‘payishiga, shuningdek, boshqa tabiiat hodisalari — sel, toshqinlar tez-tez takrorlanishiga olib kelishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ortib borayotgan global tahdidlarning oldini olish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parijda BMTning Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha hadli konvensiyasi (IO‘DK)ga bag‘ishlangan konferensiyaning 21-sessiyasida Parij bitimi qabul qilindi va 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirdi. Ushbu bitimning maqsadi sayyoramizda global isishni industrial rivojlanish davridagi o‘rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo‘yicha 2 darajada saqlab turish hamda haroratning 1,5 darajagacha o‘shirishni cheklashga erishishdan iborat. 2050-yilga borib, issiqxona gazlarining global ajratmalarini 40-70 foiz kamaytirish, 2100-yilgacha esa 0 yoki manfiy ko‘rsatkichga yetkazish talab etiladi.

Parij bitimini ratifikatsiya qilish O‘zbekiston uchun qator imkoniyatlar taqdim etdi. Xususan, energiya samardorligi va energiya tejash bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda iqlimiy moliyalashtirish resurslari (grantlar)ni jalb qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, yer-suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, salbiy ekologik oqibatlar (Orol fojiasi, cho‘llanish, qurg‘oqchilik)ga qarshi kurashish kabilar

shular jumlasidandir. Parij bitimida qatnashish investitsiya resurslarini jalb qilish hamda xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning kreditlarini olish uchun indikator sanaladi.

BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi ma’lumotlariga ko‘ra, sayyoramiz asr oxiriga kelib, 2,8 darajagacha isib ketishi mumkin. Shuning uchun quruq chaqiriq va bayonotlar berishning o‘zi yetarli emas. Bugungi kunda jahon energiya iste’molining 80 foizi neft, ko‘mir va tabiiy gaz hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, Glazgodagi COP26 sammiti faqat ko‘mirdan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirishni nazarda tutadi, neft va gazning kelajagi esa kun tartibiga kirmay qoldi. Iqlimshunoslar fikricha, dunyo mamlakatlari Parij kelishuvida qayd etilmagan global chiqindilarning asosiy manbai — qazib olinadigan yoqilg‘ilardan bosqichma-bosqich voz kechishga rozi bo‘lishi kerak. Asosiy maqsad — 2030-yilga kelib, 2019-yildagiga nisbatan zaharli is gazlari miqdorini 43 foiz kamaytirish yo‘llarini belgilab olish. Shunga asoslanib, COP28da iqlimshunos olimlar kerakli choralarni belgilash va yo‘nalishlarni to‘g‘rilash uchun Parij kelishuvlarining birinchi global tahlilini o‘tkazish takliflarini ilgari surishi kutiladi.

COP28 prezidenti, BAA sanoat va texnologiyalar vaziri, Abu Dabi milliy neft

kompaniyasi (ADNOC) rahbari va “Masdar” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Sulton bin Ahmad Al-Jobir aytganidek, “kelajakning energiya tizimi”ni qurmasdan turib, neft va gazdan voz kechishning iloji yo‘qligini hamma tushunadi. Aks holda, bu global iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarish tahdidini oshiradi. Shu bois, sammitdagi munozaralar qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etishni tezlashtirish mavzulariga bag‘ishlanadi. Ushbu maqsadlar 2030-yilga kelib, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishni uch baravar, 2030-yilgacha energiya samaradorligi sur’atini ikki baravar oshirish va “yashil” vodorodga o‘tishni ilgari surishni o‘z ichiga oladi.

Ayni paytda muammo shundaki, toza energiyaga o‘tish borasida bugungi kungacha rivojlangan iqtisodiyotlar ilgirab ketgan. Ammo dunyoning qolgan qismi, eng yirik ifloslantiruvchi, ko‘mir, gaz va neftdan keng foydalanayotgan davlatlar moliyaviy kafolatlar yoki imtiyozlarsiz hech qanday majburiyatlarini olmaydi. Natijada tahlilchilar fikricha, qashshoqlikdan chiqish yo‘lini ta’minlaydigan “adolatli energiyaga o‘tish”ni tan olmasdan, global iqlim kelishuvi haqida gapirishga erta.

Bugun bu boradagi muzokaralarni “iqlim adolati” g‘oyasiga asoslangan BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi konvensiyasi ta’minlaydi. Unga ko‘ra, zararli chiqindilarni havoga eng ko‘p chiqarayotgan va buhronga sababchi bo‘layotgan mas’ul va boy davlatlar dunyoning qolgan qismiga moliyaviy va texnologik yordam ko‘rsatishi kerak. Biroq rivojlangan davlatlar va’d qilingan yillik 100 milliard dollarlik yordamni bera olmagan uchun bu yo‘nalishdagi muzokaralar to‘xtatildi. Xususan, bu va’d bor-yo‘gi 83 milliard dollar safarbar qilingan 2020-yildan buyon bajarilmayapti.

BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilga kelib, iqlim o‘zgarishiga moslashish sa’y-harakatlarini moliyalashtirish va rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli yordam uchun har yili 200 milliard dollardan ortiq mablag‘ talab qilinadi. Shu bois, hozirgi vaqtda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda mablag‘larni jamlash uchun mo‘ljallangan global tuzilmani yaratish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi.

Iqlim ofatlari qurbonlariga “yo‘qotishlar va zararlarni”ni qoplashga mo‘ljallangan jamg‘armani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror Sharm ash-Shayx (Misr)da bo‘lib o‘tgan COP27 sammitining muhim natijasi bo‘lgandi. Biroq bu masala bo‘yicha yakuniy konsensusga hali erishilgani yo‘q. Ya’ni jamg‘arma mablag‘idan rivojlanayotgan mamlakatlarni yoki eng zaif davlatlar ko‘proq foydalanishi yuzasidan kelishmovchilik bor. Buz ustiga, xalqaro hamjamiyat bunday fond qaysi moliya instituti tarkibida bo‘lishini kelishib olishi kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa mustaqil moliya institutini yaratishni taklif qilmoqda.

Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq jiddiy muammolarni boshdan kechirmoqda. Orol dengizi qurishi tufayli mintaqada hukm surayotgan ekologik inqirozni butun dunyo yaxshi biladi. Bugun O‘zbekiston yuzaga kelgan vaziyatda yuksak mas’uliyat bilan ish tutmoqda. Mamlakatda “yashil” kun tartibini ilgari surish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli amaliy dasturlar oshirilmogda.

Mamlakatimiz ushbu sa’y-harakatlar bilan bir qatorda, global ekologik muammolarga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘p tomonlama sa’y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. Yaqinida O‘zbekiston BMTning cho‘llanishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi ijrosini ko‘rib chiqish qo‘mitasining 130 dan ortiq davlat delegatsiyalari ishtirok etgan 21-yig‘ilishiga mezbom bo‘lgani bejiz emas. 2024-yilda mamlakatimizda iqlim bo‘yicha xalqaro forum bo‘lib o‘tadi, unda BMT Bosh Assambleyasining iqlim tahdidlariga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlarining sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha rezolyutsiyasi loyihasi muhokama qilindi. Bularning barchasi O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarda faol ekaniga dalildir. Mamlakat rahbariyatining bu boradagi tashabbuslari ko‘plab davlatlarda va yirik xalqaro platformalarda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ushbu sa’y-harakatlarning barchasi bugungi kunimiz va kelajak avlodlar uchun g‘amxo‘rlik namunasi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi.



Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq jiddiy muammolarni boshdan kechirmoqda. Orol dengizi qurishi tufayli mintaqada hukm surayotgan ekologik inqirozni butun dunyo yaxshi biladi. Bugun O‘zbekiston yuzaga kelgan vaziyatda yuksak mas’uliyat bilan ish tutmoqda. Mamlakatda “yashil” kun tartibini ilgari surish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Insoniyat uchun eng katta boylik — tinchlik, uning manbai esa hamjihatlik. O'zaro totuvlik va do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror O'zbekistonda inson emini-erkini yashashi, ezgu orzusiga erishishi, shubhasiz.



YUKSALISH ODIMLARI

TRANSFORMATSIYALASHUV VA INNOVATSION YONDASHUV

xalqaro e’tirof va muvaffaqiyatga yo‘l ochmoqda

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va sifat jihatidan yuksaltirishga doir muhim vazifalar belgilangan. OTMlarning xalqaro e’tirof etilgan reyting agentliklari ro‘yxatidan joy olishi, jahondagi ilg‘or o‘qitish tajribasidan foydalanishi shular jumlasidan.



Mansur ESHOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Yaqinda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti yurtimizdagi ilk 5 yulduzli oliy ta’lim muassasasi deb e’tirof etilgani bu boradagi ishlar jadal davom ettirilayotgani tasdig‘idir. Xalqaro ta’lim standartlari darajasida bilim berishda o‘ziga xos yangiliklar joriy qilingani OTMga nufuzli QS Stars xalqaro reytingi taqdim etilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

QS Stars reytingi jahonda tan olingan 5 yulduzli baholash tizimi bo‘lib, turli yo‘nalishlardagi universitetlar faoliyati haqida umumiy tasavvur beruvchi platformadir. Unda OTMlar bir necha muhim yo‘nalish, jumladan, o‘qitish sifati, bitiruvchilarning ishga joylashishi, tadqiqot, qulaylik, innovatsiya, inklyuzivlik va boshqa mezonlar asosida baholandi. Reyting OTMning samarali ishini ko‘rsatuvchi, talaba, tadqiqotchi va akademik hamkorlarga uzoq muddatli hamda ishonchli hamkor bo‘lish uchun ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Universitetning dunyodagi nufuzli OTMlar bilan imzolayotgan qo‘shma ta’lim dasturlari, joriy qilayotgan innovatsion ta’lim modellari, akademik boshqaruv uslubini, ilg‘or tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilayotgani va talabalar almashinuv dasturlari xalqaro ta’limning dastlabki bosqichlariga pilla-poya bo‘lmoqda. TDIU QS Stars reytingi baholangan barcha jihatlar bo‘yicha — eng ilg‘or tadqiqot tashabbuslaridan tortib, innovatsion o‘qitish metodologiyalarigacha jahondagi yetakchi OTMlarning 1000 talik ro‘yxatiga tobora yaqinlashib borayotgani-dalolat.

Xalqaro integratsiyalashuv sari

TDIU keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikka ega. 2023-yil holatiga ko‘ra, u jahonning 160 dan ziyod yetakchi universiteti bilan

memorandumlar imzolagan. Talabalar orasida 30 ga yaqin millatga mansub yigit-qizlar tahsil olmoqda. Bundan tashqari, 17 mamlakatdan mingdan ziyod talaba bakalavriat, magistratura bosqichlarida, yozgi va qishki maktab, xalqaro talabalar almashinuv dasturlari bo‘yicha o‘qimoqda. Universitetda ERASMUS, JEAN MONNET, YALE GREENBERG, FEP, FULL-BRIGHT, SES, JICA kabi xalqaro dasturlar doirasida grantlar asosida ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda.

Bu va boshqa sa’y-harakatlar oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 taligiga kiritishga tobora yaqinlashtiryapti. Xususan, THE World University Rankings-2024 reytingida TDIU “Reporter” sifatida qayd etildi va pozitsiyasini tobora mustahkamlab bormoqda. Shuningdek, THE World University Rankings-2023 Asia reytingida ham “Reporter” sifatida qayd etildi. QS stars reytingida 5 yulduz “A’lo” nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi. “QS Higher Education Summit: Asia Pacific — 2023” sammitida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga “5 stars” sertifikat topshirildi. Ushbu reyting bo‘yicha Markaziy Osiyo OTMlari orasida ikkinchi va mamlakatda birinchi 5 yulduzga ega universitet sifatida qayd etildi. Oliyogha “QS Asia University Rankings-2024” sertifikat topshirildi. Bu bilan u Osiyodagi eng yaxshi universitetlar 400 taligiga kiritildi. Umumiy ko‘rsatkich



sifatida TDIU xalqaro reyting agentliklaridagi yuqori natija bilan mamlakat OTMlari orasida birinchi eng ilg‘or 3 talik qatorida qayd etildi.

Bugun global va milliy miqyosda tez rivojlanayotgan universitet mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari orasida o‘ziga xos an’anasi, innovatsion ruhi va global maqsadlarni belgilashdagi faolligi bilan ajralib turadi. OTM iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga ixtisoslashgan, o‘z yo‘nalishlari doirasidagi eng murakkab ta’lim va tadqiqot vazifalarini bajarishga qodir nufuzli universitetga aylanib bormoqda. Unda ilmiy va akademik faoliyatning alohida funksional vazifalarini bajarishga ixtisoslashgan 43 bo‘lim, global

miqyosda hamda mamlakat iqtisodiyotining fundamental masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga ixtisoslashgan 14 markaz mavjud.

Bundan tashqari, 7 ta xalqaro qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha hamkorlikda kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Jarayon London iqtisodiyot va siyosiy fanlar



maktabi (Buyuk Britaniya), Krems amaliy fanlar universiteti (Avstriya), Indoneziya ta’lim universiteti (Indoneziya), Ural davlat iqtisodiyot universiteti, Yadro tadqiqotlari milliy universiteti, Ufa davlat neft-texnika universiteti (Rossiya) bilan tashkil qilingan. Ular oliy ta’lim sohasidagi nufuzli tashkilotlar reytingida munosib o‘ringa ega OTMlar bo‘lib, ayni paytda TDIUning 1170 dan ortiq talabasi xalqaro qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha tahsil olmoqda. Mashg‘ulotlar to‘liq xorijiy tillarda kredit-modul tizimi asosida tashkil qilingan. O‘qitiladigan bilimlar, asosan, har ikkala hamkor universitet o‘quv dasturlaridagi ilg‘or fanlardan tanlab

Ta’lim sifatini oshirishda xalqaro integratsiyalashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, 58 professor-o‘qituvchi jahondagi yetakchi universitetlarning magistratura va doktorantura dasturlarida tahsil olgan. Shuningdek, ta’lim jarayoniga chet elning ilg‘or universitetlarida faoliyat yurituvchi 80

dan ortiq professor-o‘qituvchi jalb etilgan. Bundan tashqari, xorijlik 127 professor onlayn tarzda fakultativ mashg‘ulotlar o‘tlayotir.

Universitetda 2022–2026-yilga akademik, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning o‘rta muddatli strategik rejası mavjud. OTM jamoasining bosh maqsadi universitetni milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta’minlashda drayver ilmiy muassasa, yuqori intellektual salohiyatli mahalliy va xorijlik talabalarni o‘qitish tizimiga asoslangan multimedaniy xalqaro ta’lim muassasasiga aylantirishdir.

TDIUning istiqboldagi strategik boshqaruv tizimi jahonning rivojlangan oliy ta’lim muassasalari tajribasiga muvofiq, “6i modeli”ga asoslanadi. U baynalmillalashuv, fanlar va sektorlararo o‘zaro bog‘liqlik, innovatsiya, o‘zaro ta’sirchanlik, inklyuzivlik kabi 6 asosiy maqsad elementlarini mujassamlashtiruvchi “Universitet 4.0” modeli formatidagi rivojlanish tendensiyasini nazarda tutadi. Bu modeldagi yangi formatga asoslangan universitet nafaqat ta’lim va ilmiy tadqiqot faoliyati, balki innovatsiyalar ekotizimi ichki jarayonida asosiy integrator funksiyasini bajarish yo‘lida olg‘a odimlammoqda.

“Universitet 4.0” modeli — yangi innovatsion yo‘l

“Universitet 4.0” — “Raqamli universitet” yoki “Kelajak universiteti” modeli bo‘lib, jahon oliy ta’lim sohasidagi eng so‘nggi ishlanmadir. Uning doirasida raqamli texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari va zamonaviy biznes talabalarini hisobga olgan holda universitetni o‘zgartiradigan ta’lim yondashuvlari ishlab chiqildi. Ushbu model orqali turli sohadagi muammolar, iqtisodiyot, butun mamlakatni rivojlantirish uchun muhim masalalarni hal qilsa bo‘ladi. Keng ma’noda bu dastur mavjud ilmiy ishlanma va yangiliklarni patentlash, yaratilgan ishlanmalarni esa real sektor korxona va tashkilotlari qog‘ozda emas, balki amalda joriy qilish choralari ko‘rishni talab qiladi.

Mazkur yo‘nalishda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ta’lim sifatini ta-

komillashtirish va samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Ushbu strategik rejaga muvofiq, zamonaviy innovatsion tadqiqotlar o‘tkazishga mo‘ljallangan yangi markazlar tashkil qilindi. Jumladan, ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni tijoriylashtirish, talabalar startap loyihalarini moliyalashtirish va spin off loyihalarini samarali realizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni yo‘lga qo‘yish uchun “Universitet 4.0” transformatsiya markazi ochildi. Markaz faoliyatini samarali boshlashda AQSHning Massachusets texnologiyalar instituti, Misuri davlat universiteti, Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti, London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, Norzumbriya universiteti tajribasiga tayanilgan va ular bilan yaqindan hamkorlik qilingan. Markaz faoliyatı natijasida universitetning 2023-yilgi daromadi 12 foiz oshishi kutilmoqda. Uning tarkibida ilmiy tadqiqotlarni tijoriylashtirishdan olingan foyda 9 foiz ortgan.

2022-yilda global va milliy iqtisodiyotning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish maqsadida “Yangi iqlim innovatsiyalari” markazi tashkil etildi. Bundan O‘zbekistonning “Yashil” iqtisodiyot global indeksi va “Yashil” iqtisodiy o‘sh indeksi bilan munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shish, “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida iqtisodiy o‘shining strategik masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish nazarda tutilgan. Markazga Nobel mukofoti sovrindori Raye Kvon Chung rahbarlik qilmoqda.

Universitetda iqtidorli yoshlar va tadqiqotchilarning startap loyihalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, talabalarga innovatsion faoliyatini tashkil etish, iqtisodiyot sohasida innovatsion ishlanmalar yaratishga ko‘maklashish, dasturiy ta’minot mahsulotlari ishlab chiqish va joriy etish hamda texnik qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida universitet huzurida IT-park bilan hamkorlikda “Digital Economy” inkubatsiya markazi faoliyat yuritmoqda. Samarali loyihalarini rivojlantirish, investorlarni jalb etish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida inkubatsiya doirasida taniqli tadbirkorlar va trenerlar bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Jumladan, “Microsoft” kompaniyasining Sun’iy intellekt arxitekturası departamenti direktori Umid Ahmedov 2021/2022 o‘quv yilidan TDIU o‘quv laboratoriyalariga xorijiy professor sifatida jalb qilindi. Hozir u raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası huzuridagi “Microsoft” laboratoriyasida mashg‘ulotlar o‘tmoqda.

O‘tgan yili OTM o‘quv-uslubiy boshqarmasi bazasida Akademik faoliyat va registrator departamenti ochildi. Uning tarkibida akademik faoliyatni boshqarish, talabalar bilan ishlash, ma’lumotlar bazasi, qabul jarayoni va talabalar registratsiyasi bo‘limlari hamda karyera markazi tashkil etildi. Universitetning 20 mingdan ortiq talaba va magistriga akademik transkript, to‘lov-shartnoma qog‘ozı va boshqa ma’lumotnomalarni taqdim etish, diplom (dublikat) berish jarayoni bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish, talaba va magistrlar hujjati yig‘majildini saqlash, diplomlar haqida tasdiq olish kabi 40 turdan ortiq xizmat ko‘rsatilmoqda. Shulardan 15 dan ortig‘i onlayn xizmatdir.

Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yori nufuzli xorijiy universitetlar tajribasi asosida qayta ishlab chiqildi. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida professor-o‘qituvchilarning yillik auditoriya yuklamasi qisqartirildi. O‘quv yuklamasini hisoblash va taqsimlash uchun maxsus platforma yaratildi. Ilgari qog‘ozlarda shakllantirilgan dars jadvali elektronlashtirilib, mobil ilovaga ham integratsiya qilindi. Edupage platformasi ikki dars bir vaqtda bir auditoriyaga to‘g‘ri kelishining oldini oladi. Dars jadvali har bir guruhi, o‘qituvchi, xona va fanlar kesimida individual ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu esa rahbariyat, o‘qituvchilar, talabalar va ota-onalar uchun qulayliklar yaratadi hamda shaffoflikni ta’minlaydi.

Ta’limning kunduzgi va sirtqi shakllari qatorida masofaviy ta’lim shakllida ham o‘qitish joriy etildi. Buning uchun sifatli o‘quv videokontentlari tayyorlashga mo‘ljallangan Maestro — 4-K pozitsiyasidagi “Jalinga” dasturiy-apparat majmuidan iborat interaktiv videostudiya tashkil etildi. Shuningdek, o‘zaro kelishuvlar asosida mahalliy va xorijiy universitetlar bilan akademik mobillik yo‘lga qo‘yildi. Universitetga pedagog xodimlarni ishga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish va yuqori tajribali pedagog-xodimlarni tanlab, ishga jalb etish uchun alohida platforma ishlab chiqildi.

Oliy ta’limning xalqaro sifat standartlarini o‘quv jarayoniga joriy etish, yagona global ta’lim makonini shakllantirish, ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning akademik harakatchan (mobilyligini) ta’minlash va Yevropa standartlarini joriy etish, universitet akademik faoliyatini modernizatsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Jumladan, TDIU biznes boshqaruvi fakultetini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha 2022-yilning iyun oyidan buyon AQSHning AACSB (Association to Advance Collegiate Schools of Business) tashkiloti bilan muzokara olib borilmoqda va dastlabki kelishuvga erishildi. Ayni paytda ushbu tashkilot talabalar bo‘yicha fakultet qayta nomlanishi, uning tarkibidagi kafedra va ta’lim yo‘nalishlari optimallashtirilishi hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. O‘quv yili yakuniga qadar korporativ boshqaruv fakulteti ta’lim dasturlarini AQSHning AACSB tashkiloti tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish rejalashtirilgan.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligi

Universitetda ish beruvchi vazirlik va yirik tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Kadrlar tayyorlash, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar yetishtirishga zarur shart-sharoit yaratish uchun ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o‘quv rejalari ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodiyot sohaları uchun istiqbolda kadrlarga buyurtma shakllantirish, bitiruvchilarga qo‘yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish va oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash jarayonida universitet faol hamkorlik qilmoqda. Jumladan, Statistika agentligi bilan hamkorlikda “Statistika” ilmiy-amaliy laboratoriyasi, “Turonbank”, “Agrobank”, “Kafil” sug‘urta kompaniyasining o‘quv markazlari tashkil etilgan. Ushbu tashkilotlardan yetakchi mutaxassislar kelib, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda seminar-treninglar o‘tkazmoqda. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi doirasida OTM vazirlik va tashkilotlar bilan kelishgan holda talabalar amaliyoti, stajirovkasi va kelajakda ularni ish bilan ta’minlash borasida salmoqli ishlarni bajarayotir.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik sohada jahonning eng nufuzli OTMlari ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirish, hududiy, milliy, global muammolar yechimiga oid fundamental ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish orqali raqobatdosh OTM sifatida rivojlanmoqda.



QORAQALPOQ TILI BAYRAMI

MEN BIR QALBMAN JAYHUN BILAN HAMNAFAS

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida
“Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat tili to‘g‘risida”gi
qonun qabul qilinganining 34 yilligi munosabati bilan
adabiy-badiiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Adiblar xiyobonidagi qoraqalpog‘ adabiyotining ulkan namoyandalari — Berdaq, Ibroyim Yusupov, To‘lepbeg‘en Qaybergenov haykallari poyiga gul qo‘yish marosimi bilan boshlangan bayram tadbiri adabiy anjumanga ulanib ketdi. Unda yozuvchi-shoiralar, adabiyotshunos va tilshunos olimlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, talaba yoshlar ishtirok etdi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid davlatimiz rahbari e’tibori

bilan qoraqalpog‘ eli, ona tili va adabiyotini yanada rivojlantirish yo‘lida xayrli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, shuningdek, yaqinda chop etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”ning 5 jildidan qoraqalpog‘ adabiyoti asarlari o‘rin olgani-ga alohida urg‘u berdi. Ayni paytda 16 jildlik “Qoraqalpog‘ adabiyoti durdonalari” nashrga tayyorlanayotgani aytib o‘tiladi.

— O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning:

Toyin maqtab, otin minsang sinamas,

Men bu elning xush xulqiga bergum tan.



Mening qalbm Jayhun bilan hamnafas,
Sai narsaga jo’shadigan xalqman,
degan misralari bor. Ayni qutlug‘ kunda bizning-da qalbimiz Jayhun, qoraqalpog‘ xalqi bilan hamnafas ekanini aytib o‘tmoqchiman, barchamizga bugungi bayram muborak bo‘lsin, — dedi O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid.

Tadbirida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Minhojiddin Hojiyatov, professorlar Nizomiddin Mahmudov, Nurboi Jabborov, Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘ davlat universiteti rektori Ahmet Reymov, “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev, tilshunos Nurlibay Allamuratov, shoir Gulnara Nurlipesova, jurnalist Nazira Mambetsharipovanning qoraqalpog‘ tili haqidagi fikrlari tinglandi.

Shuningdek, “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev “Qoraqalpog‘ ijodkorlarining o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlari”, “Amudaryo” jurnali bosh muharriri Xalila Davletnazarov, shoir Gulnara Nurlipesova “O‘zbekcha-qoraqalpog‘cha lug‘at” haqida, tilshunos Nurlibay Allamuratov “Qoraqalpog‘ tili izohli lug‘ati” kitobining ahamiyati xususida ma’ruza qildi.

O‘z vaqtda qoraqalpog‘ she’riyati va nasri Mirtemir, Abdulla Oripov, Shuhrat, Muhammad Ali, Azim Suyun, Halima Xudoyberdiyeva, Ma’ruf Jalil, Oydin Hojiyeva tarjimasida o‘zbek o‘quvchilarga yetkazilgan. Qoraqalpog‘ adabiyoti bugungi kun o‘quvchisiga Otauli, Muzaffar Ahmad, Rustam Musurmon, Orziqul Ergash, Yangiboy Qo‘chqorov, G‘afur Shermuhammad kabi tarjimonlar mehnati samarasi o‘laroq taqdim etilmoqda.

Tadbirida taniqli san’atkorlar qoraqalpog‘cha kuy-o‘qoshlari ijro etdi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

